



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI REKTOR V.V.
B.INING
BUYRUG‘I**

2023 yil “18” noyabr 02086 - son

**“Otorinolaringologiya sohasida o‘qitishda masofaviy ta’limning o‘rni” ilmiy-
amaliy konferensiyasi va mahorat darsini o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-sentabrdagi “Respublika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanayotgan iqtidorli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-6309-sonli Farmoni va 2019-yil 6-maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4310-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-yanvardagi “Ilmiy-innovatsion ishlanma va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 24-sonli qarorida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. “Otorinolaringologiya sohasida o‘qitishda masofaviy ta’limning o‘rni” mavzusida konferensiyasi (keyingi o‘rinlarda - konferensiya) 2023-yil 01-dekabrda va shu mavzudagi mahorat darsi (keyingi o‘rinlarda - mahorat darsi) 2023-yil 02-sentabrda xorijiy mamlakatlarning yetakchi tashkilotlari bilan TTA o‘rtasida imzolangan memorandumlar doirasida ilm-fan sohasida o‘rnatilgan samarali xalqaro aloqalarni yanada mustahkamlash va o‘zaro tajriba almashish maqsadida Buyuk Britaniyaning Otorinolaringologiya milliy tibbiyot tadqiqot markazi, Avstraliya, Qozog‘iston, Turkiya, Pokiston, Qirg‘iziston hamda Tojikiston Respublikalari bilan hamkorlikda TTA Otorinolaringologiya kafedrasida o‘tkazilsin.

2. Konferensiya va mahorat darsiga tayyorgarlik ko‘rish, tashkillashtirish va uni o‘tkazish uchun Otorinolaringologiya kafedrasini mudiri U.S.Xasanov, kafedra professori Shayxova X.E., kafedra professori Sh.X.Bakiyeva, kafedra dotsenti M.M.Jafarov, kafedra dotsenti N.N.Abdullayeva, kafedra assistenti Maxamadaminova Sh.A., kafedra dotsenti J.A.Djurayevlar mas’ul etib belgilansin.

3. Quyidagilar:

Konferensiya hamda mahorat darsi dasturi 1-ilovaga muvofiq;

Konferensiya hamda mahorat darsini o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy guruh tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Mazkur buyruq ijrosining nazorati O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov zimmasiga yuklatilsin.

Rektor v.v.b.



Sh.Boymuradov

Buyruq kelishuvi

Tayyorladi:
U.Xasanov

Kafedra mudiri

Kelishildi:

F.Azizova

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha
prorektor**

A.Xamraev

Dekan

Z.Muminova

Bo'lim boshlig'i

Sh.Boymuradov

Rektor v.v.b.

M.Jafarov

Bo'lim boshlig'i

S.Yusupova

Bo'lim boshlig'i